

TIJORAT BANKLARIDA MOLİYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH

Xalilov Bahromjon Bahodirovich

Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro,

Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Bu maqolada tijorat banklarining moliyaviy nazoratini tashkil qilishning zaruriyati, uni amalda qo'llashning shakllari, bu boradagi jahon tajribasi to'g'risida batafsil to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *bank nazorati, xalqaro bank nazorati, Bazel qo'mitasi, bank nazoratini amalga oshirish usullari, masofadan nazorat qilish, joyiga chiqib nazorat qilish*

Bank nazorati hukumatning amaldagi bank-moliya tizimini barqarorligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlari yig'indisidan iborat tizimli boshqaruv vositasi hisoblanadi. Mazkur tizim oldiga ikkita asosiy vazifa qo'yiladi: nazorat jarayonlarini amalga oshirayotgan paytda ham banklar manfaatini, ham mazkur banklarga o'z omonatlarini joylashtirgan mijozlar manfaatdorligini ko'zlab ish ko'rishlari lozim bo'ladi. Bundan tashqari nazorat qilinayotgan banklar joriy faoliyati bilan bog'liq risklar darajasini aniq baholab berish talab qilinadi. Zero, bank mijozlari banklarning ommaviy chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlari axborotlari asosida moliyaviy koeffitsientlardan foydalangan holda bank faoliyatiga mustaqil baho berishlari mumkin. Bunda bank tizimidagi biron-bir bank faoliyatiga salbiy baho berilishi bank tizimi mijozlarida boshqa banklarga bo'lgan ishonchga ham putur etkazishi mumkin. Shuning uchun ham bank tizimini to'la-to'kis sog'lom ishlashini ta'minlash maqsadida tegishli nazoratlar o'tkazib turish juda muhim hisoblanadi.

Bank nazoratining yana bir vazifalaridan biri bank sektorida ichki raqobatni rivojlantirish va shu asosda mijozlarga ularning bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda mutanosib ravishda xizmat ko'rsatishni ta'minlash hisoblanadi.

Bank nazorati 100 yildan ortiq muddat davomida AQShda va G'arbiy Evropa davlatlarida o'zining qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'iy nazar, shakllanib kelgan edi. So'nggi 15-20 yil atrofida rivojlanayotgan mamlakatlar ham bank nazoratini bank-moliya tizimini barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini anglab etdilar va o'z milliy bank tizimlariga joriy qila boshladilar.

Bozor iqtisodiyoti qaror topgan rivojlangan davlatlarda davlatning bank nazorati sohasidagi asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- pul taklifi ustidan nazorat o'rnatish;

- iqtisodiyotdagi moliyaviy nobarqarorlikka barham berish;
- banklarning foyda asosida faoliyat yuritishini ta'minlash;
- bank tizimiga nisbatan ishonchsizlik tuyg'ularini yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik.

Banklar tomonidan o'z kapitalining yetarliligini ta'minlanishi Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy me'yorlarga rioya etilishi, risklarning oqilona diversifikatsiyalanishini ta'minlanishi, bank-kredit portfelining holatini aksiyadorlar va omonatchilar manfaatlarini himoya qilish nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda nazorat qilishdir.

Bank nazoratining asosini banklarning o'zlari tomonidan tayyorlangan moliyaviy hisobot shakli yoki auditorlik firmalari tasdiqlagan ish faoliyatining moliyaviy ahvoli va rentabelligi haqidagi axborotlar tashkil etadi. Ko'pgina xalqaro me'yoriy hujjatlarda bank aktivlari va passivlarini to'g'ri baholash, ular faoliyatining moliyaviy natijalari haqqoniy baholanishi zarurligi ta'kidlanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, rivojlangan davlatlarda, xususan Evropa Ittifoqi davlatlarida, AQSh, Kanada, Yaponiya kabi davlatlarda bank nazoratining zarurligi 1975 yilga kelib o'z aksini topdi, ya'ni rivojlangan davlatlar bank nazoratini faqat moliyaviy sektorda emas, balki, umuman iqtisodiyotda asosiy rol o'ynashini tan oldilar. Natijada bank nazorati bo'yicha xalqaro tashkilot "Bazel qo'mitasi" tashkil etildi.

Banklarning tizimli riskni keltirib chiqarishi, bir-biri bilan iqtisodiy aloqada bo'lgan davlatlarni ham iqtisodiy inqiroz yoqasiga olib kelishi mumkin ("kapalak effekti" nazariyasi, Braziliyada qanot qoqqana kapalklar Texasda tarnadoni vujudga keltirish mumkin).

Bazel qo'mitasi butun dunyo mamlakatlari uchun bank nazorati tamoyillarini ishlab chiqadi va mintaqaviy bank nazoratida banklar faoliyati, ularning nazorat qilish tamoyillari ishlab chiqilib, davlatlar uni o'zlarining iqtisodiy holatidan kelib chiqqan holda bank nazorati bo'yicha standartlariga muvofiqlashtiradi.

Bank tizimi amaliyotida bank nazoratining asosan ikki usulidan foydalanish samarali natija berishini amalda isbotlangan: birinchisi, Markaziy bank tomonidan tijorat banklar faoliyatini masofadan turib, ya'ni ular taqdim etgan moliyaviy hisobotlarini tekshirish orqali nazorat qilish. Ikkinchisi, banklarni joylarga chiqib inspeksiya qilish, ya'ni barcha moliyaviy hisobotlar va ularga tegishli qo'shimcha ma'lumotlar tijorat banklarining o'ziga borib tekshirishdir.

Masofadan turib banklarni nazorat qilish usuli Yevropa mamlakatlarida keng qo'llanilgan. Bunda Markaziy bankning nazorat departamentlari tashqi audit firmalari bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Har yili yakunlanishidan oldin setifikatlangan tashqi audit firmalariga audit tekshirishlarida faoliyatning qaysi tomonlariga e'tibor berish

kerakligi ko'rsatiladi. Ayrim hollarda tashqi audit firmalarining ishchi materiallariga, garchi ularning xususiy mulki bo'lsada, ushbu materiallardan foydalanish talab qilinadi.

Tijorat banklarini joylarga borib tekshirish AQShda keng qo'llaniladi. AQSh bank nazorati departamentida ko'p sonli inspektorlar ishlashadi. Ular joyga chiqib, tijorat banklari hujjatlarini bevosita tekshirib, bank boshqaruviga baho beradilar. Bugungi kunda banklarning soni 11 mingtadan ortiqqligini inobatga oladigan bo'lsak, bu tekshirish usuli qancha mablag' va vaqt talab qilishini hisobga olish lozim.

Jahon tajribasidan keng o'rin olgan masofadan turib nazorat o'rnatish bank faoliyatiga oid moliyaviy va boshqa hisobotlarni tahlil qilish hamda tekshiruvdan o'tkazishni ko'zda tutadi. Hisobotlar balans, foyda va zararlar haqidagi hisobot, faoliyat turi, kreditlar, qo'yilmalar, majburiyatlar, kapital, likvidlik, ssudalar bo'yicha yo'qotishlarga qarshi zaxiralar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Demak, masofadan nazorat qilish yoki uzoqlashtirilgan monitoring bank holatini so'nggi ma'lumotlar asosida baholash imkonini beradi. Ya'ni masofadan nazorat etish bank faoliyati sam-radorligiga xalal berishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlab, kelgusida ular bilan bog'liq xarajatlarning oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Халилов, Б. Б., Нарзуллаева, Г. С., Баходиров, С., & Университети, Б. Д. (2021). ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛИЯТИ ВА УНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. *MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS*, 51.
2. Bahodirovich, X. B. (2024). KICHIK BIZNES SUB'EKTLARINING MOLIYAVIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.
3. Bahodirovich, X. B. (2024). O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARINI TUZISH TARTIBI. *Gospodarka i Innovatsiya*, 52, 9-13.
4. Bahodirovich, X. B. (2024). AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA QARZ MABLAG'LARI HISOBIGA MOLIYALASHTIRISHDA KORPORATIV OBLIGATSIYALAR. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 211-216.
5. Bahodirovich, X. B. (2024). MOLIYAVIY RISKLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TASNIFLANISHI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 334-339.
6. Bahodirovich, X. B. (2024). MOLIYAVIY HISOBOT XALQARO STANDARTLARI (MHXS) NING TAVSIFI VA MOHIYATI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 218-224.

7. Bahodirovich, X. B. (2024). DIVIDEND SIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 225-231.

8. Bahodirovich, X. B. (2024). KORXONALARDA SOLIQLARNI REJALASHTIRISH VA UNING BOSQICHLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 205-210.

9. Bahodirovich, X. B. (2024). MOLIVAVIY HISOBOTLARNI MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TUZISHNING NAZARIY ASOSLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 340-346.

10. Bahodirovich, X. B. (2024). MOLIVAVIY AKTIVLARNING MOHIYATI, TASNIFLANISHI VA BAHOLANISHI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 217-219.

11. Bahodirovich, K. B. (2024). RISK IN BOND VALUATION. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 349-354.

12. Bahodirovich, X. B. (2024). O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 343-348.

13. Bahodirovich, X. B. (2024). O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FONDRLARI FAOLIYAT MEXANIZMI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 337-342.

14. Bahodirovich, X. B., & Jamilova, E. (2024). AUDITORLIK HISOBOTI VA UNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TUZISH ASOSLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(3), 38-43.

15. Bahodirovich, X. B. (2024). AUDITORLIK XULOSASI VA UNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TUZISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 252-258.

16. Bahodirovich, X. B. (2024). AUDITORLIK TASHKILOTINING HUQUQLARI, MAJBURIYATLARI VA JAVOBGARLIGI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(3), 31-37.

17. Bahodirovich, X. B. (2024). AUDITDA MUHIMLIK DARAJASINI ANIQLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(3), 18-23.

18. Bahodirovich, X. B. (2024). AUDITNING AXLOQ KODEKSI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(3), 24-30.

19. Bahodirovich, X. B. (2024). BANK SIRI VA BANK AXBOROTINING MAXFIYLIGIGA RIOYA QILISH TALABLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.

20. Bahodirovich, X. B. (2024). AUDITORLIK TEKSHIRUVLAR NATIJALARINI UMUMLASHTIRISH VA BAHOLASH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 245-251.
21. Bahodirovich, X. B. (2024). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 271-277.
22. Bahodirovich, X. B., & Rajabova, M. (2024). O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 264-270.
23. Bahodirovich, X. B. (2024). MOLIVAVIY QO'YILMALARNI AUDITORLIK TEKSHIRUVIDAGI AUDIT AMALLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 258-263.
24. Bakhodirovich KB. CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF IMPROVING ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *IMRAS*, 6 (6), 161–165 [Internet]. 2023
25. Kayumovich, K. O. (2020). The highlight priorities for the development of digital tourism in Uzbekistan. *International scientific review*, (LXIX), 61-62.
26. Abidovna, A. S. (2024). XUSUSIY OLIY TA'LIMDA HR MENEJMENTDAN FOYDALANISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(08), 68-74.
27. Alimova, S. (2024). NEW APPROACHES TO THE EFFECTIVENESS OF INTERACTION BETWEEN PROFESSIONAL EDUCATION AND EMPLOYERS. *Modern Science and Research*, 3(7), 211-218.
28. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. *Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch*.
29. Abidovna, A. S. (2024). "PERSONNEL MANAGEMENT" AND "HUMAN RESOURCE MANAGEMENT": HISTORY OF ORIGIN, ESSENCE AND RELATIONSHIP OF CONCEPTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 336-343.
30. Ibodullayevich, I. E. (2024). Inqirozga Qarshi Choralar Dasturi Doirasida Kichik Biznes Va Xususiy Tadbirkorlik Subyektlarini Marketing Tizimi Asosida Rivojlantirish Muammolari. *Miasto Przyszłości*, 54, 1495-1503.
31. Mamlakat, I. (2023). THE USE OF DICTIONARIES IN READING AND UNDERSTANDING LITERARY TEXTS IN NATIVE LANGUAGE LESSONS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(09), 285-292.
32. Supiyevna, B. M. (2024). IMPROVING THE EFFICIENCY OF LEADER LABOR IN THE MODERN MANAGEMENT SYSTEM. *Gospodarka i Innowacje.*, 54, 51-55.
33. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARI INNOVATION STRATEGIYALARINING IERARXIK TUZILISHI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 187-192.

34. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARI INNOVATSION STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH JARAYONI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(3), 193-198.

35. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2024). TIKUVCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BAZAVIY INNOVATSION STRATEGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 332-336.

36. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISH VA AMALGA OSHIRISHNING DOLZARBLIGI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 183-187.

37. Azimov, B. F., & Quدراتova, G. M. (2024). TIKUVCHILIK SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION STRATEGIYALARINI QOLLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 325-330.

38. Xudoynazarovich, S. A. (2024). CHALLENGES OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS AND THEIR SOLUTIONS. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 11(12), 398-402.

39. Kayumovich, K. O., Gulyamovich, D. I., & Khudoynazarovich, S. A. (2020). Information and information technologies in digital tourism. *Special issue on financial development perspectives of the life standard in Central Asia*, 32.

40. Khudoynazarovich, S. A. (2022). Features of evaluating the effectiveness of activities at the Bukhara State University. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 153-159.

41. Qizi, R. N. O. (2024). YASHIL IQTISODIYOTGA OTISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MASALALARI. *Gospodarka i Innowacje*, 54, 56-61.

42. Qizi, R. N. O. (2024). YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR O'SISH KO'RSATKICHLARI. *Gospodarka i Innowacje*, 54, 113-118.

43. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(3), 314-322.

44. Hakimovich, T. M., & Avazovna, R. L. (2024). BUXORO VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI VA BANDLIK. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(3), 67-73.

45. Avazovna, R. L., & Hakimovich, T. M. (2024). YASHIRIN IQTISODIYOTNING MILLIY JAMIYATIMIZGA TA'SIRI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(3), 104-108.

46. Akbarovna, N. N. (2024). TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT YURITISHNING SHAKLLARI VA YO'NALISHLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(3), 57-63.

47. Bobojonova, M. J., & Naimova, N. A. (2024). FRILANSERLIK-O'ZINI O'ZI BAND QILISHNING YANGI SHAKLI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 283-288.

48. Qayumovna, J. Z., Ne'matovna, R. N., & Azizovna, P. A. FAVORABLE INVESTMENT CLIMATE FORMATION ISSUES FOR ATTRACTING ACTIVE INVESTMETNS. *GWALIOR MANAGEMENT ACADEMY*, 29.

49. Bustonovna, J. Z. (2024). MOLYAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOT BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING USTUVOR YO 'NALISHLARI.

50. Jumayeva, Z. (2024). DAVLAT TASHKILOTLARINING FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ISH YURITISH TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING ZARURIY SHARTLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).

51. Turayevich, I. A. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI BOSHQARISH YO 'LLARI. *Miasto Przyszłości*, 55, 1464-1468.

52. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK SUB'EKT LARI INVESTITSION LOYIHALARINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI VA O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 306-314.

53. AT, I. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH VA UNI INVESTITSIYA BILAN TA'MINLASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 241-248.

54. Avazovna, R. L. (2024). PENSIYA TA'MINOTINI MOLYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH ORQALI PENSIYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MASALALARI. *Miasto Przyszłości*, 55, 1469-1474.

55. qizi Bobojonova, M. J. (2023). AGROTURIZMNING IQTISODIYOTDA O 'RNI, SALOHIYATI VA INFRATUZILMASINI YAXSHILASH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(8), 48-52.

56. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHDA DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASINING AHAMIYATI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 300-306.

57. Jumayeva, Z. B., & Bobojonova, M. J. (2024). IQTISODIY TEBRANISHLAR SHAROITIDA KICHIK BIZNESNING YASHOVCHANLIK DARAJASINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 313-318.